

GIYOHVAND VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALARI ISTE'MOL QILINISHI UCHUN MO'LJALLANGAN JOYLAR- “BANGIXONA” TUSHUNCHASI

Muxamatov Bobirmirzo Farxodovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvand vositalar va psixotrop moddalarni iste'mol qilish uchun mo'ljallangan maxsus joylar – bangixona tushunchasining nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil qilingan. Xalqaro va milliy qonunchilikda ushbu jinoyatning tarkibiy alomatlari, uni aniqlash va huquqiy baho berish masalalari yoritilgan. Shuningdek, dunyo olimlarining qarashlari asosida bangixonaga yagona mualliflik ta'rif ishlab chiqilgan. Maqolada bu jinoyatning ijtimoiy xavfi, uning giyohvandlik tarqalishiga ta'siri hamda profilaktika choralarini kuchaytirish zarurati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: bangixona, giyohvand moddalar, psixotrop vositalar, iste'mol joyi, jinoyat qonunchiligi, huquqiy ta'rif, xalqaro huquq, ijtimoiy xavf, muntazam foydalanish.

ПОНЯТИЕ «ПРИТОН» - МЕСТА, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫЕ ДЛЯ УПОТРЕБЛЕНИЯ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ПСИХОТРОПНЫХ ВЕЩЕСТВ

Мухаматов Бобирмирзо Фарходович

соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и правовые аспекты понятия “притон” – специально организованного места для употребления наркотических средств и психотропных веществ. Анализируется международное и национальное законодательство по квалификации преступления, связанного с организацией притонов. На основе научных взглядов различных исследователей предложена авторская дефиниция понятия «притон». Также акцентируется внимание на общественной опасности данного явления и необходимости усиления профилактических мер.

Ключевые слова: притон, наркотические средства, психотропные вещества, место потребления, уголовное право, правовая дефиниция, международное право, социальная опасность, систематическое использование.

THE CONCEPT OF "DEN" - PLACES INTENDED FOR THE USE OF NARCOTIC DRUGS AND PSYCHOTROPIC SUBSTANCES

Mukhamatov Bobirmirzo Farhodovich

Applicant of the Academy of the Ministry of Internal

Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the theoretical and legal aspects of the term "drug den" –a place specially organized for the consumption of narcotic drugs and psychotropic substances. The study reviews international and national legislation on the qualification of crimes related to organizing such premises. Based on the views of global scholars, an original (authorial) definition of the concept of a "drug den" is proposed. The article also emphasizes the social danger posed by such places and the urgent need to strengthen preventive and legal measures.

Keywords: drug den, narcotic drugs, psychotropic substances, place of consumption, criminal law, legal definition, international law, social danger, systematic use.

Bugungi kunda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb muammolardan biriga aylangan. Giyohvand moddalar va psixotrop vositalarning tarqatilishi, iste‘moli, shuningdek ularni saqlash, yetkazib berish va aynan bangixona tashkil qilish kabi jinoyatlar fuqarolar sog‘lig‘iga, ma‘naviyatiga hamda milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Shu munosabat bilan, jinoyat qonunchiligini xalqaro huquqiy me‘yorlarga muvofiqlashtirish, bu boradagi milliy va xalqaro tajribalarni integratsiyalashtirish – jahon hamjamiyati oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi kunda giyohvandlik illati bilan to‘qnash kelmagan davlatni topish qiyin. Bu illat, ayniqsa, yosh avlodning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘iga xavf solib, jamiyatning ma‘naviy asoslarini yemirmoqda. Shu sababli, deyarli barcha davlatlar jinoyat qonunlarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasini, xususan ular iste‘mol qilinishi uchun maxsus joy – bangixona tashkil qilish kabi harakatlarni jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladigan qilmishlar sifatida belgilagan.

Bangixonalar – giyohvand moddalarni iste‘mol qilish uchun maxsus sharoit yaratib beruvchi joylar sifatida, nafaqat mazkur moddalarni iste‘mol qilishning markaziga, balki ularning noqonuniy tarqalishi, foydalanuvchilar doirasini kengaytirish va giyohvandlik madaniyatini shakllantirish nuqtasiga ham aylanib bormoqda. Shuning uchun ham bangixona tashkil qilish jinoyati giyohvandlik

muammosining kengayishiga turtki beruvchi og‘ir ijtimoiy xavfga ega jinoyatlardan biri sifatida qaraladi.

Ma‘lum-ki, giyohvandlikning ijtimoiy xavfliligi giyohvandlik vositalariga qaramlik natijasida inson hulq-atvorida ro‘y beradigan o‘zgarishlarning kriminogen omil ekanligi; giyohvandlik va jinoyatchilikning bevosita aloqador ekanligida namoyon bo‘ladi, ya‘ni: 1) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tarqatish bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishi; 2) ushbu moddalarni xarid qilish uchun mablag‘ topish; 3) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ta‘sirida jinoyat sodir etilishi; 4) o‘rganilayotgan moddalarni iste‘mol qilganlarning jinoyat jabrlanuvchisi bo‘lishida namoyon bo‘ladi [1].

Ushbu muammoning oldini olishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xorijiy davlatlarning mazkur yo‘nalishdagi qonun chiqaruvchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tibbiyot muassasalari va jamoatchilik ishtirokidagi kompleks yondashuvlarini o‘rganish, ularning samarali mexanizmlarini milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish giyohvandlikka qarshi kurashda muhim omil sifatida e‘tirof etiladi. Shu jihatdan, bangixona tashkil qilish jinoyatini aniqlash, bartaraf etish va unga huquqiy baho berishda ilg‘or davlatlar tajribasi hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu illatning kengayishi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida fojiali oqibatlarga olib kelayotgani fuqarolar ma‘naviyatiga, jamiyat barqarorligi va xavfsizligiga tahdid solmoqda. Shu sababli, giyohvandlikka oid jinoyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishda murakkab va xavfli ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan “bangixona” tashkil qilish jinoyati alohida huquqiy e‘tibor markazida turibdi.

“Bangixona” atamasi ilmiy va huquqiy adabiyotlarda turlicha ta‘riflangan bo‘lib, umumiy ma‘noda u – giyohvand moddalarni iste‘mol qilish uchun maxsus tayyorlangan joyni anglatadi. Bu joyda, odatda, giyohvand moddalarni saqlash, tayyorlash, iste‘mol qilish uchun qulay sharoit yaratiladi hamda bu faoliyat boshqalarga ham xizmat ko‘rsatish maqsadida yo‘naltiriladi. Bangixona faqat moddiy joy emas, balki u giyohvandlik muhiti, madaniyati va iste‘mol to‘rini shakllantiruvchi omil sifatida ham qaraladi.

Dunyo olimlari bangixona tashkil qilish jinoyatini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganib kelishmoqda. Ayrim tadqiqotchilar bangixonani – giyohvand moddalar iste‘moli uchun jismoniy makon sifatida tavsiflasa, boshqalar uni – shaxslar o‘rtasidagi giyohvandlikni targ‘ib qiluvchi, uning tarqalishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy muhit sifatida qarashadi. Mazkur qarashlar turlicha bo‘lsa-da, ularning umumiy xulosasi shundan iboratki, bangixona – giyohvandlik tarqalishining asosiy nuqtalaridan biri bo‘lib, u jamiyat uchun katta ijtimoiy xavf tug‘diradi.

Huquqiy nuqtai nazardan, bangixona tashkil qilish – giyohvand moddalarni iste‘mol qilish uchun joy yaratish, unda faoliyat yuritish, boshqa shaxslarni u yerga

jalb etish va bunday joyning mavjudligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu jinoyat turi ko'pincha boshqa jinoiy faoliyatlar (masalan, giyohvand moddalarni saqlash, tarqatish, kontrabanda) bilan chambarchas bog'liq holda sodir etiladi va jinoiy guruhlar tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Xalqaro va milliy qonunchilikda bangixona tashkil qilish jinoyatini aniq ifodalash, uning tarkibiy belgilarini belgilash, jinoiy javobgarlik mezonlarini ishlab chiqish hamda sud-tergov amaliyotida bu tushunchani to'g'ri qo'llash – giyohvandlikka qarshi kurashda muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, profilaktik va jazo choralarini takomillashtirish orqali bangixonalarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini mustahkamlash mumkin.

Xalqaro va milliy yuridik adabiyotlarda **“bangixona” tushunchasi bir xilda ta'riflanmasdan**, mualliflarning ilmiy qarashlari va metodologik yondashuvlariga qarab turlicha talqin etilgan. Ayrim olimlar bu tushunchani faqat **giyohvand moddalarni iste'mol qilish uchun jismoniy joy tashkil qilish** sifatida izohlasalar, boshqalar uni **faol ijtimoiy xavfga ega bo'lgan, jamiyatda giyohvandlik muhitini shakllantiruvchi va tarqatuvchi markaz** sifatida qarashadi.

Ba'zi tadqiqotchilar bangixona tashkil qilish jinoyatini – shaxs tomonidan o'z yoki boshqa shaxs manfaati uchun giyohvand moddalarni iste'mol qilish uchun maxsus joy tayyorlab berish, unda iste'mol qilish uchun shart-sharoit yaratish, bunday joyni boshqalarning foydalanishiga taqdim etish kabi harakatlar majmuasi deb baholaydilar. Bu yerda faqat joyning mavjudligi emas, balki uning maqsadli ravishda faoliyat ko'rsatishi, doimiy ravishda giyohvand moddalar iste'moli uchun xizmat qilishi asosiy belgilardan biri sifatida belgilanadi.

Ayrim huquqshunos olimlar esa bu jinoyatni kengroq talqin qilib, uni giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq **ijtimoiy xavfli munosabatlarni rag'batlantiruvchi muhit** sifatida qaraladilar. Ya'ni, bangixona – bu faqatgina “joy” emas, balki u giyohvand moddalar iste'moliga moyil shaxslarni jalb etuvchi, ularni buzg'unchi faoliyatga aralashtiruvchi muhitdir deb fikr bildirishgan. Amaliy jihatdan qaralganda esa, bangixona tashkil qilish jinoyati ko'p hollarda guruh holatida, oldindan til biriktirish yo'li bilan yoki boshqa jinoyatlar (masalan, giyohvand moddalarni saqlash, ularni tarqatish yoki noqonuniy sotish) bilan birgalikda sodir etiladi. Shu boisdan, mazkur jinoyatni faqat yakka holdagi huquqbuzarlik sifatida emas, balki uyushgan jinoyatchilik tizimi doirasida baholash ham talab etiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini iste'mol qilish uchun joy tashkil etish yoki saqlash (O'zR JK 273-moddasi 4-qismi) kabi qilmishni malakalashtirish amaliyoti bahsli bo'lib qolmoqda. Agar giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish uchun taqdim etilgan turar joy shaxsiy yashash uchun

foydalanilsa, bunday harakatlar huquqni qo‘llovchi organlar tomonidan joy tashkil etish yoki saqlash sifatida baholanmaydi.

Jumladan, B.G. Dondukov ta’kidlaganidek, bangixona narkopriton - bu aybdor shaxslar tomonidan boshqa fuqarolarga giyohvand moddalar yoki psixotrop vositalarni iste’mol qilish uchun muntazam ravishda taqdim etiladigan turar joy yoki noturar joy hisoblanadi [2]. B.G. Dondukov ta’rifi bangixona tashkil qilish jinoyatining huquqiy tarkibiy belgilarini ochib berishga yordam beradi. Jumladan, bu jinoyat faqat moddiy joy tashkil etish bilan cheklanib qolmay, balki fuqarolarni giyohvandlik muhitiga jalb etish, uni targ‘ib qilish, bunday faoliyat uchun maxsus sharoit yaratish va uni muntazam ravishda amalga oshirish kabi harakatlarni ham qamrab oladi. Bunda joyning huquqiy maqomi – ya’ni turar joy yoki noturar joy ekanligi muhim emas; asosiy mezon – uning giyohvand moddalarni iste’mol qilish uchun doimiy ravishda taqdim etilishi hisoblanadi. B.G.Dondukovning ta’rifi ushbu jinoyatga ilmiy va huquqiy yondashuvda muhim o‘rin tutadi hamda milliy qonunchilikda bangixona tashkil qilishga oid normalarni takomillashtirishda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Sud va tergov amaliyoti giyohvandlik vositalarini o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni ko‘rishda ushbu jinoyatlarni vujudga keltiruvchi shart sharoitlar, giyohvandlik vositalarini olish mumkin bo‘lgan joylar va shaxslar, giyohvandlik vositalari realizatsiya qilinadigan joylarni aniqlash masalasiga yetarlicha e’tibor berilmayotganligini ko‘rsatadi. Giyohvandlik vositalari kimdan, qaerdan olinganligi, giyohvandlik vositalarining kelish kanallarini aniqlash ham talab darajasida emas, ko‘p hollarda tergov vaqtida shaxsini aniqlashning imkoni bo‘lmagan shaxsdan giyohvandlik vositasi olinganligi qayd qilinadi [3]. .

“Giyohvand moddalar, psixotrop vositalar yoki ularning analoglarini iste’mol qilish uchun yashirin joy” atamasi nimani anglatadi? E.F. Pobegayloning fikricha, bunday joy - bu aybdorlar tomonidan giyohvand moddalar yoki psixotrop vositalarni iste’mol qilish uchun muntazam ravishda beriladigan turar joy (kvartira, xona, dala hovli, uy) yoki noturar joy (erto‘la, chordoq, omborxona va hokazo). “yashirin joyni ta’minlash” deganda uning faoliyatini ta’minlashga qaratilgan harakatlar tizimi tushuniladi (moddiy ta’minot, qo‘riqlash, ta’mirlash, xonani tozalashni tashkil etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va boshqalar). Bu giyohvand vositalari yoki psixotrop moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilish uchun foydalaniladigan binoni amalda egalik qilishdir [4].

E.F. Pobegayloning ta’rifi bangixona tushunchasini amaliy faoliyat nuqtai nazaridan to‘liq yoritadi va uning muntazamlilik, joyning turi, hamda faoliyatni ta’minlash kabi jihatlarini aniq belgilaydi. Bu huquqni qo‘llash amaliyoti uchun foydali yondashuvdir. Ammo olim jinoyatning sub’ektiv tomon (niyat) masalasi to‘liq yoritilmagan– ya’ni aybdor shaxsning niyati va xohishi, bu faoliyatda

shaxsan ishtirok etishi yoki uni tashkil etishdagi roli yetarli darajada ochib berilmagan. Joyning huquqiy maqomiga bog‘liqlik bor ya’ni ta’rifda asosan kvartira, xona, dala hovli kabi real mulk shakllariga tayangan. Holbuki, amaliyotda chodir, qurlishi bitmagan bino, vagon, vaqtinchalik turay joylar ham bangixona bo‘lishi mumkin. Qonunchilikdagi umumlashma tushunchaga to‘liq mos kelmasligi mumkin, chunki ta’rif ko‘proq xususiy mulk asosidagi joylarga tayanadi, ijaraga olingan yoki vaqtincha foydalanilayotgan joylar ham nazardan chetda qolishi ehtimolga yaqin.

S.V. Maksimovning fikricha, giyohvand moddalar yoki psixotrop vositalarni iste’mol qilish maqsadida moslashtirilgan har qanday turar joy yoki noturar joy binosi bangixona hisoblanadi [5].

S.V. Maksimovning ta’rifi bangixona jinoyatini belgilovchi muhim mezon — **joyning funksional moslashuvini** ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, agar biron-bir turar yoki noturar joy, masalan, xonadon, garaj, ombor, cherdak, yerto‘la yoki boshqa binolar maxsus tarzda giyohvand moddalarni iste’mol qilish uchun qayta jihozlangan yoki doimiy ravishda bunday maqsadda ishlatilayotgan bo‘lsa, u bangixona deb qaraladi. Bu yondashuv bangixona jinoyatining **ob’ektiv tomoniga** – ya’ni moddiy joy va uning vazifasiga alohida e’tibor qaratadi. Ya’ni, bangixonaning mavjudligi faqat joyning o‘ziga emas, balki **uning giyohvandlik iste’moliga xizmat qilish xususiyatiga** bog‘liq bo‘ladi. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida jinoyatni aniqlash va huquqiy baho berishda aniq mezon sifatida foydalanilishi mumkin. Boshqa tomondan, S.V. Maksimov ta’rifi joydan **muntazam foydalanish** joyini qat’iy talab qilmaydi. Bu esa ba’zi huquqshunoslar tomonidan tanqid qilinadi, chunki jinoiy javobgarlikni belgilashda joydan **tizimli, maqsadli va takroriy foydalanish** holati muhim deb qaraladi. Shuning uchun mazkur ta’rifda bangixona tashkil qilishdagi **aybdor shaxsning niyati** va **faoliyatining doimiyligi** kabi sub’ektiv va ob’ektiv alomatlarni chuqurroq yoritish zarur deb hisoblaymiz.

S.V. Polubinskayaning fikricha, “bangixona” (priton) tushunchasi ostida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilish uchun beriladigan yoki foydalaniladigan har qanday turar joy yoki noturar joy, oddiy yoki maxsus jihozlangan binoni tushunish lozim. Pritonni saqlash deganda binoga zarur to‘lovlarni amalga oshirish, uni tozalash va shunga o‘xshash harakatlarni, shuningdek uni qonunda ko‘rsatilgan maqsadlar uchun taqdim etishni nazarda tutadi.

S.V. Polubinskayaning ta’kidlashicha, bangixona – bu giyohvand moddalar yoki psixotrop vositalarni iste’mol qilish uchun foydalaniladigan yoki taqdim etiladigan har qanday turar yoki noturar joy bo‘lib, u oddiy yoki maxsus jihozlangan bo‘lishi mumkin. Uningcha, bangixonani saqlash degani – joyni tozalash, kommunal to‘lovlarni amalga oshirish va uni giyohvandlik maqsadida foydalanish uchun shart-sharoit yaratish kabi harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi ta’riflarni tahlil qilish orqali bangixona (priton) tushunchasining asosiy huquqiy va ilmiy alomatlari quyidagicha shakllanadi:

1. Joyning turi – turar yoki noturar, oddiy yoki maxsus jihozlangan bo‘lishi mumkin;

2. Maqsadi – giyohvand modda yoki psixotrop vositalarni iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan;

3. Muntazam foydalanish – joy bir marta emas, qayta-qayta, tizimli ravishda taqdim etilgan;

4. Saqlash va moddiy ta’minlash – joyni tozalash, xarajatlarni qoplash, ishlatishga sharoit yaratish;

5. Niyat va faoliyat shakli – aybdor shaxsning bu joyni maqsadli ravishda ushbu faoliyat uchun yaratganligi.

Bu mezonlar asosida bangixona tashkil qilish jinoyatini aniqlashda ilmiy-amaliy yondashuv yuzaga keladi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar hamda qonun chiqaruvchi organlar uchun muhim metodik asos vazifasini o‘taydi.

Ko‘rib turganimizdek, “bangixona” tushunchasi haqidagi nazariy yondashuvlar shundan dalolat beradiki, bu atama faqatgina yarash uchun mo‘ljallangan turar joylar yoki ro‘yxatdan o‘tgan binolar bilan cheklanmaydi. Ya’ni, bangixona deb tan olinishi uchun albatta uning yashash uchun qurilgan bo‘lishi, yoki rasmiy ravishda turar-joy maqomiga ega bo‘lishi shart emas. Aksincha, bu tushuncha — belgilangan huquqiy maqsadlarda mo‘ljallanmagan har qanday turar yoki noturar joyning, muntazam ravishda giyohvand moddalar, psixotrop vositalar yoki ularning analoglarini iste’mol qilish uchun ishlatilishi bilan bog‘liqdir. Bu yerda muhim omil –binodan qanday foydalanilayotgani va aybdor shaxsning niyati, ya’ni ushbu joyni maxsus maqsadda qayta-qayta taqdim etishi yoki ishlatishi hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, bangixona deb faqat yashash uchun mo‘ljallangan uyni emas, balki:

- garaj, omborxona, cherdak, yerto‘la,
- qurilishi tugallanmagan yoki tashlandiq binolar,
- hatto vaqtinchalik qurilmalar (modullar, vagonlar, chodirlar) ham hisoblash mumkin, agar ular muntazam ravishda narkotik vositalarni iste’mol qilish uchun ishlatilsa.

Shu bois, zamonaviy huquqiy amaliyotda bangixona tushunchasiga funksional yondashuv ustuvor ahamiyatga ega. Ya’ni joyning tashqi ko‘rinishi, qurilish maqsadi yoki huquqiy statusi emas, balki u qanday maqsadda va qanday usulda foydalanilayotgani asosiy o‘rin tutadi.

Shuningdek, bizning fikrimizga ko‘ra, aybdor shaxsning mavjud binosidan (masalan, shaxsiy kvartirasidan) giyohvand moddalarni iste’mol qilish uchun foydalanishi, faqatgina u bunday binoni giyohvand moddalar iste’mol qilinadigan

joy sifatida moslashtirish uchun maqsadli aniq harakatlarni amalga oshirgan taqdirdagina, giyohvandlik maskani tashkil etish deb hisoblanadi. Bunday harakatlarga quyidagilar ya'ni ta'mirlash ishlari, binoni qayta qurish, havo tortish va shamollatish tizimlarini o'rnatish, giyohvand moddalarni tayyorlash va iste'mol qilish uchun texnika, asbob-uskunalar va moslamalarni joylashtirish, mijozlarning “xavfsizligi” va maxfiylikni ta'minlash uchun texnik vositalarni o'rnatish, mebel va shu kabilarni joylashtirish kiradi.

Fikrimizcha, giyohvand vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish uchun ajratilgan va (yoki) moslashtirilgan joyni saqlash deganda, shaxsning quyidagi qasddan qilingan harakatlari tushuniladi: bunday joydan foydalanish; joy tashkil etilgandan so'ng uning mavjudligi bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki binoni ishlatish (undan foydalanganlik uchun ijara haqini to'lash, tashrif buyuruvchilarni nazorat qilish, qo'riqlashni ta'minlash va hokazo) tushiniladi.

Umuman olganda, bangixona tashkil qilish jinoyati – giyohvandlikka oid jinoyatlarning tarqalishini tezlashtiruvchi omil sifatida, qonunchilikda maxsus nazarda tutilishi lozim bo'lgan xavfli ijtimoiy hodisadir. Shu sababli, xalqaro huquq normalari hamda milliy qonunchilikda mazkur tushunchani aniq va amaliy jihatdan yoritish, uning tarkibiy elementlarini belgilash, jinoiy javobgarlik chegarasini aniqlash va bu yo'nalishda sud-tergov amaliyotini takomillashtirish zamonaviy kriminologiya ning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda

Yuqorida aytilganlarni xulosa qilar ekanmiz, ta'kidlash lozimki, bangixona tashkil qilish jinoyati to'g'risidagi tushunchalar va ta'riflar har xil bo'lsa-da, ularning umumiy nuqtasi – bu jinoyatning yuqori ijtimoiy xavfliligi, uning giyohvandlik illati tarqalishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi va profilaktika choralarini kuchaytirish zaruratidan iboratdir. Shu bois, ushbu jinoyat turini huquqiy, kriminologik va ijtimoiy nuqtai nazardan yanada chuqurroq o'rganish, uning tarkibiy alomatlarini aniq belgilash hamda xalqaro huquqiy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish zamonaviy yuridik ilmiy tadqiqotlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar, huquqiy tahlillar va tadqiqot natijalari asosida “bangixona” tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Bangixona – bu aybdor shaxs tomonidan giyohvand vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini iste'mol qilish uchun doimiy yoki muntazam ravishda boshqa shaxslarga taqdim etiladigan, yashash yoki boshqa maqsadlarda mo'ljallangan bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday turar yoki noturar joy, binodir.

Ushbu joy bangixona deb e'tirof etilishi uchun undagi faoliyat belgilangan huquqiy maqsadlarga zid bo'lishi, iste'mol uchun sharoit yaratilishi, joyning saqlanishi, moddiy jihatdan ta'minlanishi va boshqarilishi kabi harakatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Ushbu ta'rif ushbu jinoyatning huquqiy tarkibini to'liq

qamrab oladi va uni aniq, umumiy qoidalarga muvofiq ravishda baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarova B.A. Giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari. 2012. Yu.f.n. diss.avt. B-12
2. Umarova B.A. Giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashni takomillashtirish masalalari. O'zbekiston qonunchiligi .tahlili. 2011 №4 B-46. https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/14207
3. Дондуков Б.Г. Криминалистическая характеристика наркопритона как места незаконного сбыта наркотических средств и психотропных веществ // Вестник Сибирского юридического института МВД России. 2018. № 3 (7). - 15-18 с.
4. С.В.Максимов. Уголовное право. Учебное пособие / под. ред. Л.Д.Гаухмана и С.В.Максимова. – М.: Элит, 2007. – С. 358.
5. В.Н. Кудрявцева, А.В. Наумова., Курс российского уголовного права. Особенная часть / Под ред. В.Н. Кудрявцева, А.В. Наумова. М.: Спарк, 2002. С. 634.